

BOYSUN TUMANI QISHLOQ XO'JALIGINING SALOHİYAT DARAJASI

Xudoyberdiyev Diyorbek Norqobil o'g'li - Termiz davlat universiteti Geografiya kafedrası o'qituvchisi

O'zbekov Daler Oybek o'g'li - Termiz davlat universiteti Geografiya ta'lim yo'nalishi 2-bosqich talabasi

Qo'zimurodova Aziza Azamat qizi - Termiz davlat universiteti Geografiya ta'lim yo'nalishi 2-bosqich talabasi

***Annotatsiya:** Ushbu maqolada Boysun tumanining iqtisodiy salohiyatida qishloq xo'jaligining, xususan chorvachilik va dehqonchilik tarmoqlarining o'rni tahlil qilingan. 2024-yil statistikasi asosida ishlab chiqarish hajmlari, xo'jaliklar toifalari va ularning iqtisodiy ta'siri yoritilgan. Shuningdek, o'rmon xo'jaligi va baliqchilikning hozirgi holati va istiqbollari baholangan. Tadqiqot natijasida tuman iqtisodiyotini rivojlantirish uchun takliflar ishlab chiqilgan.*

***Kalit so'z:** Boysun tumani, chorvachilik, dehqonchilik, o'rmon xo'jaligi, dehqon xo'jaligi, tomorqa, zamonaviy yondashuvlar.*

***Аннотация:** В данной статье анализируется роль сельского хозяйства, в частности животноводства и земледелия, в экономическом потенциале Байсунского района. На основе статистических данных за 2024 год освещены объемы производства, категории хозяйств и их экономическое влияние. Также оценено современное состояние и перспективы лесного и рыбного хозяйства. В результате исследования разработаны предложения по развитию экономики района.*

***Ключевые слова:** Байсунский район, животноводство, земледелие, лесное хозяйство, крестьянское хозяйство, приусадебное хозяйство, современные подходы.*

THE POTENTIAL LEVEL OF AGRICULTURE IN BOYSUN DISTRICT.

Xudoyberdiyev Diyorbek Norqobil o'g'li - Teacher at Termez State University,
Department of Geography

Ozbekov Daler Oybek o'g'li - 2nd-year student in Geography education at
Termez State University

Qo'zimurodova Aziza Azamat qizi - 2nd-year student in Geography education at
Termez State University

***Abstract:** This article analyzes the role of agriculture, in particular livestock and farming, in the economic potential of the Boysun district. Based on statistics for 2024, production volumes, categories of farms and their economic impact are covered. The current state and prospects of forestry and fisheries are also assessed. As a result of the study, proposals have been developed for the development of the district's economy.*

***Keywords:** Boysun district, livestock, farming, forestry, peasant farming, homestead, modern approaches.*

Kirish. Boysun tumani Surxondaryo viloyatining shimoliy, tog'li hududida joylashgan bo'lib, o'zining tabiiy geografik xususiyatlari, agroiklimiy sharoiti va tarixiy-iqtisodiy rivojlanish bosqichlari bilan ajralib turadi. Mavjud geografik holat va tabiiy resurslar tuman iqtisodiyotining muhim tarmoqlaridan biri sifatida qishloq xo'jaligini ajratib ko'rsatishga asos bo'ladi. Tadqiqot davomida Boysun tumanining 2024-yil bo'yicha rasmiy statistik ko'rsatkichlari asosida amalga oshirilgan chuqur tahlil shuni ko'rsatmoqdaki, qishloq xo'jaligi tumanning asosiy iqtisodiy tayanch tarmog'i bo'lib qolmoqda.

Tadqiqot metodologiyasi. Boysun tumanining qishloq xo'jaligi salohiyat darajasini o'rganish uchun kompleks va tizimli yondashuv asosida turli ilmiy-uslubiy metodlardan foydalanildi. Tadqiqotning asosiy maqsadi — tumandagi tabiiy-geografik sharoitlar, yer resurslari, mehnat resurslari, iqlim omillari, agrotexnik imkoniyatlar va ishlab chiqarish tizimi orqali qishloq xo'jaligining mavjud salohiyatini baholash va uning rivojlanish imkoniyatlarini aniqlashdan iboratdir.

Tahlil va natijalar. 2024-yilda qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulotlari umumiy hajmi 1 749,7 milliard so'mni tashkil etib, 2023-yilga

nisbatan 103,6 foizga o'sish qayd etilgan. Bu holat tumanning agrar salohiyati yuqoriligidan dalolat beradi. Ayniqsa chorvachilik tarmog'i ajralib turadi — ishlab chiqarish hajmi 1177,4 milliard so'mga yetgan, bu esa umumiy qishloq xo'jaligi mahsulotlari tarkibida 74,6 foiz ulushni tashkil qiladi. Bu ma'lumotlar asosida xulosa qilish mumkinki, chorvachilik Boysun tumanining yetakchi qishloq xo'jaligi sohasi sifatida shakllangan va uning iqtisodiyotdagi o'rnini tobora mustahkamlanmoqda. Lekin ushbu sohada Boysun tumani Surxondaryo viloyati reytingida 12-o'rinni egallaydi. Bunga asosiy sabab esa Boysun tumanida sug'oriladigan yerlar miqdori kamligi, suv masalasida kuzatiladigan taqchillik va zamonaviy turdagi qishloq xo'jaligini olib bormaslikdir.


Boysun tumanida qishloq xo'jaligida foydalaniladigan yerlar tuman jami yer maydonining 65,8% ni tashkil etadi.



Qishloq xo'jaligida foydalaniladigan umumiy yer maydoni(2023-yil 1-yanvar holatida)

Bundan tashqari, dehqonchilik mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 400,7 milliard so'mni tashkil etib, bu tarmoq umumiy qishloq xo'jaligi mahsulotlari ichida 25,4 foizlik ulushga ega. Tuman don yetishtirish bo'yicha viloyatda oxirgi o'rinda turadi. Bunga asosiy sabab esa suv tanqisligi va sug'orma dehqonchilik qiladigan yerlarning taqchilligidir. Shuningdek tumanda 1619 gektar yerni ko'p yillik daraxtzorlar egallagan bo'lib, tuman jami ekin maydonining 7,8%ini tashkil etadi. Boysun tumani viloyatimiz dehqonchiligida uzum yetishtirish hajmi bo'yicha 4-o'rinda, meva yetishtirish hajmi bo'yicha 5-o'rinda, kartoshka

yetishtirish hajmi bo'yicha 13-o'rinda, sabzavot yetishtirish hajmi bo'yicha 14-o'rinda va poliz ekinlarini yetishtirish hajmi bo'yicha 14-o'rinda turadi. Bu ko'rsatkichlar tuman hududidagi yer resurslaridan foydalanish, sug'oriladigan maydonlar samaradorligi hamda ekinlar diversifikatsiyasi darajasini anglash imkonini beradi. Yerning nisbatan tog'li va qiyalik hududlarda joylashganligi, infratuzilmaning yetarli darajada rivojlanmaganligi dehqonchilikning to'liq salohiyatda ishlashiga ma'lum darajada to'sqinlik qilmoqda. Shunga qaramay, mavjud salohiyatdan to'g'ri foydalanilsa, dehqonchilik hamda bog'dorchilik, tokchilik va sabzavotchilik kabi yo'nalishlar bo'yicha sezilarli natijalarga erishish mumkin.



Boysun tumanida qishloq xo'jalik korxonalari va tashkilotlarining foydalaniladigan yerlari, gektarda (2023-yil 1-yanvar holatiga ko'ra)

Qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish strukturasi xo'jaliklar toifasi bo'yicha tahlil qilinganda, asosiy yuk dehqon va tomorqa xo'jaliklariga tushadi. Statistik ma'lumotlarga ko'ra, 2024-yilda tuman bo'yicha jami ishlab chiqarilgan mahsulotlarning 91,8 foizi dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 7,9 foizi fermer xo'jaliklariga va atigi 0,3 foizi qishloq xo'jaligi tashkilotlariga to'g'ri kelgan. Bu ko'rsatkich tuman iqtisodiyotining ko'p qismi hali ham an'anaviy, mayda

xo'jaliklarga tayanayotganini anglatadi. Bunda tomorqa xo'jaliklarining oilaviy turmushdagi ahamiyati, mahalliy darajada o'zini o'zi band qilish manbai sifatidagi roli muhim o'rin tutadi. Biroq, iqtisodiy samaradorlik, mahsuldorlik, texnologik yondashuv jihatidan bu xo'jaliklarning ko'pchiligi past darajada bo'lib qolmoqda. Shu bois, ularni ilmiy-tadqiqotlar asosida mexanizatsiyalash, agrotexnik xizmatlar bilan ta'minlash va kredit resurslariga keng kirish imkoniyatini yaratish lozim.

Xulosa

Boysun tumani qishloq xo'jaligi salohiyati jihatidan O'zbekistonning tog'li mintaqalari orasida yirik agrar tumanlardan biri hisoblanadi. Uning iqtisodiyotida qishloq xo'jaligi, ayniqsa chorvachilik, hal qiluvchi o'rin egallaydi. Mavjud resurslardan oqilona va zamonaviy yondashuv asosida foydalanilsa, qishloq xo'jaligi sohasida yanada yuqori natijalarga erishish mumkin. Shu bilan birga, innovatsion texnologiyalar, iqtisodiy islohotlar va davlat tomonidan yaratilgan imkoniyatlardan keng foydalanish orqali Boysun tumanini nafaqat viloyat miqyosida, balki respublika darajasida yetakchi agroiqtisodiy hududlardan biriga aylantirish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori. "2022–2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi" – T.: Adolat, 2022.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 23-oktabrdagi "O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligini rivojlantirishning 2020-2030-yillarga mo'ljallangan strategiyasini tasdiqlash to'g'risida" gi PF-5853-sonli farmoni
3. O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Kadastr agentligining Davlat kadastrlari palatasi – "O'zbekiston Respublikasining Yer fondi (2023-yil 1-yanvar holatiga) . Toshkent – 2023 yil. –B. 141-152.
4. O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi. "Qishloq xo'jaligi sohasi bo'yicha 2024-yil yakuniy statistik ma'lumotlari", www.stat.uz.

5. Surxondaryo viloyati hokimligi rasmiy sayti: "Boysun tumani ijtimoiy-iqtisodiyoti axborotnomasi", 2024-yil. www.surxon.uz
6. O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligi rasmiy - www.agro.uz sayti.
7. Boysun tumani hokimligi rasmiy axborot portal - www.boysun.uz
8. O'zbekiston Respublikasi qonunchilik hujjatlari bazasi. www.lex.uz